# NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2021- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra*

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma’lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

UZSTAT



# Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*

| | | |
|---|---|---|
| Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar | 31 815 | 119,7 % |
| Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar | 30 882 | 119,2 % |
| Yangi tashkil etilgan korxonalar (2020- yilda) | 6 345 | 111,8 % |

Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. O‘z o‘rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o‘z shaxsiy biznesini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda va o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati bilan)*



# Faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni

*(tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2021- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*

**17 936** — Mas‘uliyati cheklangan jamiyat

**968** — Oilaviy korxona

**135** — Unitar korxona

**7 197** — Xususiy korxona

**23** — Aksiyadorlik jamiyati

**411** — Boshqa korxonalar

## Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*



# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha, yanvar-dekabr oylarida, birlikda )*




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

*(yanvar-dekabr oylarida)*



# Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

*(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)*

**27 314** ro'yxatdan o'tgan
- **1 548** kichik korxonalar
- **25 766** mikrofirmalar

**26 531** faoliyat ko'rsatayotgan
- **1 529** kichik korxonalar
- **25 002** mikrofirmalar

**6 202** 2020- yilda yangi tashkil etilgan
- **83** kichik korxonalar
- **6 119** mikrofirmalar

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)*



## Oilaviy korxonalar soni

*(1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro‘yxatdan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra 1 002 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 469 taga yoki 1,9 martaga oshganligini ko‘rish mumkin.

Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 968 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 445 taga yoki 1,9 martaga oshganligini ko‘rish mumkin.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 509 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 280 taga yoki 222,3 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

## Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni

*(1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*

Tashkiliy huquqiy shakli bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra 18 342 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 4 180 taga yoki 129,5 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 17 936 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 4 020 taga yoki 128,9 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4 634 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 687 taga yoki 117,4 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

*(2021- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*




Ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra 267 tani tashkil etib, ulardan 260 tasi yoki 97,4 % faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 39 taga yoki 117,1 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda 48 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yanvar-dekabr oylarida, birlikda)*



# Namangan viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni

*(2021- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*



| | Jami | *shundan:* | |
|---|---|---|---|
| | | qo‘shma korxona | xorijiy korxona |
| **Rossiya Federatsiyasi** | **53** | 41 | 12 |
| **Qozog‘iston Respublikasi** | **13** | 9 | 4 |
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **44** | 24 | 20 |
| **Qirg‘iz Respublikasi** | **9** | 8 | 1 |
| **Tojikiston Respublikasi** | **9** | 7 | 2 |
| **Turkiya Respublikasi** | **32** | 14 | 18 |
| **Hindiston Respublikasi** | **10** | 2 | 8 |
| **Janubiy Koreya Respublikasi** | **30** | 22 | 8 |
| **Singapur Respublikasi** | **4** | 2 | 2 |
| **Eron Islom Respublikasi** | **3** | 1 | 2 |

# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)*





# Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni

*(2021- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*

| | Jami | *shundan:* | |
|---|---|---|---|
| | | qo‘shma korxona | xorijiy korxona |
| **Namangan viloyati** | **260** | 167 | 93 |
| **Namangan shahri** | **77** | 49 | 28 |
| **Mingbuloq** | **7** | 2 | 5 |
| **Kosonsoy** | **27** | 21 | 6 |
| **Namangan** | **16** | 14 | 2 |
| **Norin** | **10** | 6 | 4 |
| **Pop** | **26** | 17 | 9 |
| **To’raqo’rg’on** | **19** | 11 | 8 |
| **Uychi** | **17** | 14 | 3 |
| **Uchqo’rg’on** | **8** | 3 | 5 |
| **Chortoq** | **20** | 12 | 8 |
| **Chust** | **21** | 12 | 9 |
| **Yangiqo’rg’on** | **12** | 6 | 6 |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Namangan shahrida 77 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 29,6 %), Kosonsoy 27 ta (10,4 %) Pop 26 ta (10,0 %), Chust 21 ta (8,1 %), Chortoq 20 ta (7,7 %) To’raqo’rg’on 19 ta (7,3 %) hamda Uychi 17 tani (6,5 %) tashkil etadi.

# Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha soni

*(2021- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*




2021- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Namangan shahri (34,2 %), Chust (8,3 %), Namangan (7,0 %), Uychi (6,6 %), Pop (6,3 %), To’raqo’rg’on (6,2%), Kosonsoy (6,1 %), Uchqo’rg’on (5,7 %), Chortoq (5,4%), Yangiqo’rg’on (5,1 %), Norin (4,7 %), Mingbuloq (4,4 %) hissalariga to‘g‘ri keladi.

# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha soni

*(2020- yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda)*

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Namangan shahrida (23,6 %), Pop (8,9 %), Chust (8,2 %), Uychi (7,8 %), Namangan (7,3 %), To'raqo'rg'on (7,7 %), Uchqo'rg'on (6,8 %), Chortoq (6,4 %), Yangiqo’rg’on (6,1 %) Kosonsoy, Norin (5,9 % dan) va Mingbuloq (5,4 %) hissalariga to‘g‘ri keladi.



# Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni

*(2021- yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*




## Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

*(2021- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*




2021- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Namangan shahrida (38,4 %), Uychi (7,2 %), Pop (6,7 %), Namangan (6,6 %), Chortoq (6,3 %), Kosonsoy (5,9 %), Chust va Yangiqo’rg’on (5,3 %dan), Norin (5,0 %), To’raqo’rg’on (4,9 %), Uchqo’rg’on (4,8 %) va Mingbuloq (3,6 %) tumanglari hissasiga tegishli.

## Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo‘shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

*(2021- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)*




2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning uchinchi muhim yo‘nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o‘sib borishi, eng avvalo, viloyatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning hududlar bo'yicha soni

*(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, birlikda)*




2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Namangan (22,0 %), To'raqo'rg'on (18,7 %), Yangiqo'rg'on (13,9%), Chortoq (9,4 %), Uchqo'rg'on (9,2 %), Uychi (8,3 %), Namangan shahri (8,0 %), Kosonsoy (3,5 %), Chust (2,6 %), Mingbuloq (2,2 %), Norin (1,4 %), Pop (0,8 %) tumanglari hissasiga tegishli.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

*(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, birlikda)*






## Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma’lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

**Namangan viloyati Statistik registrlarni yuritish bo’limi**
**Tel.:69-227-84-96**